

**NUTQ VA MULOQOT**

**Kurbanov Muzaffar Abdumatalibovich**

*Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti*

**Mo'minova Matluba Akmalxon qizi**

*Andijon davlat chet tillari instituti magistranti*

Jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan ilm-fan va texnika sohalari insoniyat faoliyatining barcha qirralarini egallamoqda. Shunga ko'ra zamonaviy fan va ta'lif rivojlanishini soha mutaxassislarining bir-birlari bilan o'zaro fikr va axborot almashinuviz tasavvur qilish mushkul. Mazkur fikr va axborot almashinuvi og'zaki va yozma shakllarda bo'lish bilan birga, verbal hamda noverbal muloqot orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham matnlarda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan bog'liq verbal va noverbal vositalarning tushunib etish masalasi tom ma'noda o'ziga xos murakkablik tug'dirib, o'rjanuvchidan yetarli bilim va ko'nikmalarni talab qiladi.

Ilmiy bilimlarning rivojlanishi asosan tilshunoslikning til haqidagi tartib-qoidalari, me'yorlari va talablari bilan belgilanadi, uning yordamida ilmiy bilim asoslari shakllanadi va axboroti uzatiladi. Bunday holda, til dunyo haqidagi bilimlarni o'zlashtirishning o'ziga xos vositasi, inson ongingin xususiyatlarini o'zida mujassam yetgan moddiy tashuvchi vazifasini bajaradi. Jumladan, ilm-fan va texnika sohalarida lingvistik komponentga ilk qiziqish XX-asr boshlarida mantiqiy tahlil nazariyasi va vositalari asoschisi – ingliz matematigi va faylasufi B.Rassel tomonidan “Inson idroki: uning sohasi va chegaralari” asarida ko'rsatilgan<sup>62</sup>.

B.Rassel tilni ilmiy bilimlarning rivoji va ma'nosini bildiruvchi mantiqiy tizim sifatida ko'rishni boshladi. U ilmiy faoliyatning turli sohalarida olib boriladigan har qanday tadqiqotni ishlataligani so'zlarning to'g'rilingini va ularning ma'nosini, so'ngra so'z birikmalarining semantik yukini va gapdag'i so'zlarning sintaktik aloqasini tekshirishdan boshlash kerak, deb hisoblaydi.

Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan shaklidir. Nutq og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lib, so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi. Inson nutqi – nutqni hosil qilish jarayonida ishtirok etuvchi inson organlari (o'pka, ikkita bronx, traxeya, kekirdak, bo'g'iz, higildog, halqum,

<sup>62</sup>Рассел Б. “Человеческое познание: его сфера и границы”. –М.: ТЕПРА-Книжный клуб, 2000.

*tishlar, burun bo'shlig'i, lablar)ning kompleks harakatidir. Lingvistik nuqtai nazardan nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi bo'lgan mavhum til tushunchasiga ham taaluqlidir. Shunga asoslanib nutq og'zaki va yozma nutq shakllariga ega.*

Og'zaki nutqda ovoz ohangi, tembr, pauza va imo-ishora harakatlari kabi noverbal vositalar orqali grammatik belgilarni namoyon etsa, yozma nutq (matn)da ular tinish belgilari va kommunikantlarning harakatlarini tasvirlash orqali amalga oshiriladi.

A. Nurmonovning aytishicha, konkret nutq vaziyatida muayyan bir ma'no ifodalovchi imo-ishoralar shu nutq vaziyatini qayta hikoya qilib berish jarayonida ma'lum lingvistik birliklar yordamida tasvir qilinadi. Demak, har bir tilda imo-ishoralarni ifodalovchi bir qator fe'llar mavjud. Mazkur fe'llar semantik tomondan *ishora fe'llari* deb yuritiladi<sup>63</sup>.

Ammo, fikrimizcha, muloqot nutqqa nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, unda nutq organlaridan tashqari imo-ishora, ovoz ohanglari va nolinguistik vositalar yordamida kommunikatsiyaga kirishni kuzatishimiz mumkin. Chunonchi, muloqot – insonlar o'rtasida yuzaga kelgan ehtiyojlaridan kelib chiqib aloqa bog'lanishlari rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot insonlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyati mexanizmini tashkil etib, muomala va munosabatlar uyg'unligiga aytish mumkin. Muloqot bilan munosabat birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayriboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihatni hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladi. Muloqotning yana bir jihatni munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati-nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki imo-ishora va harakatlar bilan ham axborot ayriboshlashdan iborat. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perceptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi.

Imo-ishora harakatlari bilan muloqot qilish verbal til (nutq) muloqotidan avval paydo bo'lganligi, qadimda ibtidoiy odamlar tovushlar kompleksini o'z xatti-harakatlariga tayangan holda ifodalab kelganligi va asta-sekinlik bilan ularning o'rnini so'zlar egallaganligi ilmiy jihatdan isbotlangan<sup>64</sup>. Masalan, tilshunoslik nazariyasining asoschilaridan bo'lgan V.Gumboldt, A.Shleyxer va V.Vundtlar tilning kelib chiqishini ibtidoiy odamlarning fikrlash qobiliyatini

<sup>63</sup>Nurmonov A. O'zbek paralingvistik vositalari // Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: Akademnashr, 2012; Saidxonov M. Aloqa-aratashuv va imo-ishoralar. –T.: Fan, 2008; - 221-бет.

<sup>64</sup>Курашкина Н. Исследование потенциала невербальных средств коммуникации в рамках спецсеминара// Концепт: научно-методический электронный журнал, № 5, 2012. – С. 8-13.

rivojlanish va o‘z fikrini ifoda etishga ehtiyoj tug‘ilganligi bilan bog‘lab, fikrlash tufayli inson gapira boshlaganligi, til tufayli o‘ylashni o‘rganganligini e’tirof etishgan<sup>65</sup>.

Shunga ko‘ra, nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayoni, muloqot esa insonlar o‘rtasida aloqa bog‘lanishning ko‘p qirrali jarayoniga aytish mumkin.

---

<sup>65</sup> Копач О., Воронович В. Введение в языкознание. –Минск: 2017. –С. 16.